



BRITANIYA MUSULMONLARI OMMAVIY AXBOROT VOSITALARI NIGOHIDA.

Abdujabborova Fotimabonu

*O'zbekiston xalqaro islom akademiyasi
1-bosqich magistranti*

Anotatsiya: *Ushbu maqolada Angliya jamiyati hamda, u yerda yashovchi musulmonlar haqida qanday fikrlar mavjud ekanligi, ommaviy axborot vositalari jamoatchilikning Britaniya musulmonlari haqidagi fikriga qanchalik ta'sir o'tkazayotgani, ingliz mediasining musulmonlarni yoritish uslubi Britaniya ilmiy tadqiqotchilari xususan, islomshunoslari nazarida qanchalik odilona va haqiqatga yaqin ekanligi, Britaniya ommaviy axborot vositalari qanday manbalar asosida Islomni yoritmoqda shuningdek, ingliz jamiyati mediadan boshqa yana qanday yo'llar orqali musulmonlar haqida fikr hosil qilmoqdalar. shu kabi masalalar ko'rib chiqilishi ko'zda tutilgan. Maqolaning oldiga qo'yilgan maqsadlarini ko'rib chiqish, avval musulmonlarning Britaniya jamiyatidagi o'rni va holati bilan tanishib chiqishni taqozo etadi. Shu boisdan Britaniyaga islom dini qanday sharoitlarda kirib kelgani va bugungi kungacha qanday davrlarni bosib o'tganligi haqida qisqacha bayon berish maqsadga muvofiq bo'ladi.*


Kalit so'zlar: *Angliya, Islom dini, "Oksford islom tadqiqotlar markazi.*

МУСУЛЬМАНЕ БРИТАНИИ В ПЕРСПЕКТИВЕ МЕСТНОГО СМИ.

Аннотация: *В этой статье рассматриваются взгляды британского общества и живущих там мусульман, как СМИ влияют на общественное мнение о британских му Мусульмане Британии в перспективе местного СМИ мусульманах, и насколько справедливым и правдивым является освещение британскими СМИ мусульман по мнению британских ученых, особенно исламских ученых. освещение ислама в СМИ, а также то, как британское общество относится к мусульманам. Будут рассмотрены аналогичные вопросы. Учитывая цель статьи, необходимо сначала ознакомиться с ролью и статусом мусульман в британском обществе. Поэтому стоит дать краткое описание обстоятельств, при которых ислам проник в Британию и через какие периоды он прошел по сей день.*

Ключевые слова: *Англия, ислам, Оксфордский центр исламских исследований.*

Annotation: *This article discusses the views of British society and Muslims living there, how the media influences public opinion about British Muslims, and how fair and truthful the British media's coverage of Muslims is in the eyes of British scholars, especially Islamic scholars. the British media's coverage of Islam, as well as the way in*






which British society views Muslims in other ways than the media. similar issues will be considered. Considering the purpose of the article, it is necessary to first get acquainted with the role and status of Muslims in British society. Therefore, it would be useful to give a brief account of the circumstances in which Islam came to Britain and what periods it has gone through to this day.

Keywords: *Britain, Islam, Oxford Center for Islamic Studies.*

Angliyaga islom dini xarbiy yurishlar orqali kirib kelganiga oid hech qanday ma'lumotlar uchramaydi. Biroq, musulmon savdogarlar va ilk musulmon jamiyatlari xaqida XVI –asrga tegishli ma'lumotlar mavjud. Manbada keltirilishicha, Angliya orol-davlat hisoblangani uchun ko'plab port shaharlari bo'lgan, ilk musulmonlar ana shunday shaxarlarga dengiz-savdo kemalarida kelishgan va mintaqada o'rnashishgan. Bundan tashqari inglizlar islom dinini qabul qilish holatlari ham kuzatilgan. Angliya aholisi orasida musulmonlar soni sezilarli darajada ortishi faqatgina o'tgan asrning 50-yillarida yuz bergan deb hisoblanadi. Britaniyaning mashxur BBC ning rasmiy web-saytida joylashtirilgan ma'lumotlarga ko'ra, 2- jahon urushidan so'ng Britaniyaning sobiq koloniyalari sanalgan Hindiston, Pokiston, Bangladesh kabi davlatlardan "yaxshiroq hayot" ilinjida ko'p sonli musulmonlar oqimi kirib kelgani aytiladi. Staffordshire universiteti islomshunos tadqiqotchisi PhD. Ainurliza Mat Rahimning fikricha mazkur davlatlardagi qashshoqlik sababi aynan Angliyaning koloniyalashtirish siyosati bo'lgan, usha davrda Britaniya hukumati ishchi kuchiga muhtoj bo'lgan, shu sababli tekstil va sanoatchilik zavodlariga muhojirlarni jalb etgan, shu tariqa Britaniyada musulmonlar soni orta boshlagan, degan g'oyani ilgari suradi.

Ushbu keltirilgan ma'lumotlar fakt sifatida bir birini tuldirdi ham, ayni reallikka (hodisaga) ikki hil nazar bilan qarash mavjudligini sezish mumkin. Britaniyaning eng yirik OAVsi musulmon fuqarolar soni ortishiga ularning vatanlaridagi iqtisodiy parokandalikni sabab qilib ko'rsatsa, boshqa tarafdin bunday ahvolga Britaniya hukumatining o'zi sababchi ekanligi ko'rsatiladi. Ushbu fikrlardan obyektiv hulosani olish uchun, har ikki tarafning qarashlari biri birini tamomlagan degan to'htamga kelish to'g'ri bo'ladi. Shu davrgacha inglizlarning islom dini va musulmonlar haqidagi tushunchalari faqatgina sayohatchi va savdogarlarning hikoyalari asosida shakllangan edi. Ikkinchi jahon urushi keltirgan talofotlarni ketqazish maqsadida Britaniya hukumati uquvsiz muhojirlarni ish bilan ta'minlay boshlagan, usha davrda mamlakatning asosiy ishchi kuchini Hindiston, Pokiston, Bangladesh hamda bir qancha Afrikadagi sobiq koloniyalardan kelgan muhojirlar tashkil etgan. XX-asrning 50-yillarida faqatgina erkak muhojirlar oqimi kuzatilgan bo'lsa, 70-yillarga kelib ularning oilalari ham mamlakatga ko'chib o'tishni boshlashgan, shu tariqa Britaniyada ilk musulmon jamiyatlari paydo bo'la boshlagan. Mazkur davrga qadar musulmonlarning jamiyatdagi o'rni huddi boshqa muhojirlarniki kabi bo'lgan. Masalan, qora tanlilar, osiyoliklar kabi jamiyatlar bilan





bir hil ahamiyat kasb etgan. Musulmonlarning dini qarashlari huddi ularning madaniyatining bir elementi kabi qabul qilingan, shu nuqati nazardan islom dinini san`at va madaniyat, arxeologiya va arxitektura kabi sohalar orqali o`rganish keng tarqalgan.

Britaniyada musulmonlarnig boshqa jamiyatlardan farqliroq o`rin tutishiga 2001-yil 9/11 voqealari sabab bo`lgan . Ayni shu voqealardan so`ng nafaqat inglizlar balki dunyoning ko`pgina davlatlarida islom dinining aqidasi, tamoyillari hamda musulmon davlatchiligi kabi mavzularga bo`lgan qiziqish ortganini ko`rish mumkin. Britaniya jamiyatida shu kungacha millatchilik va irqchilik holatlari uchrab turar edi, mazkur terrorchilik harakati endilikda ushbu ayrimchilik hodisalariga din elementi qo`shilishiga olib keldi. Bundan keyin sodir bo`lgan fenomen faqatgina Britaniyada emas, balki butun jahon OAVlarida kuzatilgan. Islom dinini terrorchilik g`oyalari bilan bog`lash va jamiyatda musulmonlarga qarshi nafrat kayfiyatini uyg`otishga mo`ljallangan materiallarni keng ommaga tarqatish va jamiyat fikrini boshqarish holatlari yuz bergan. Bu haqida Uels shaxzodasi quyidagi fikrni bildirgan : "Oksford islom tadqiqotlar markazi, bizning Islom haqidagi tushunchamizni to`g`irlash uchun taxsinga loyiq ishlar amalga oshirdi. Bunday islohotlar hozirgi, barcha jamiyatlar biri biriga uzviy bog`liq bo`lgan zamonda juda muhim o`rin kasb etadi. Islom olami va g`arb o`rtasida do`stlik aloqalarini o`rnatish hozir har qachongidan ham zarur". Shaxzodaning ushbu holatga fikr bildirgani, Britaniya mediasining omma fikrini boshqarishga urinish hatti-harakatlaridan norozi ekanini bildiradi. Shu sababdan o`z qaramog`ida bo`lgan Oksford islom tadqiqotlar markaziga ingliz jamiyati va musulmonlar o`rtasida do`stlik aloqalari o`rnatishga qaratilgan tashviqot- targ`ibot ishlari va turli hil tadbirlar o`tkazish vazifasini topshirgan.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO`YHATI.:

1. Ainurliza Mat Rahim. Visualisation of women in muslim media and their reception: a comparative analysis of two british muslim magazines. Staffordshire universiteti PhD unvoni uchun dissertatsiyasi. 2018
2. Encyclopedia Britannica. United kingdom, Encyclopedia Britannica Inc. 2010
3. https://www.bbc.co.uk/religion/religions/islam/history/uk_1.shtml#:~:text=The%20first%20large%20group%20of,in%20what%20is%20now%20Bangladesh

